



TURKMAN MILLIY TAOMLARI

O'zbek xalqi azal-azaldan mehmondo'stligi va asrlarga tatigulik birodarlik tuyg'ulari ila yashab keladi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-talabalar turar joyida 8-noyabr kuni "Teatr san'ati" fakulteti "Dramatik teatr va kino aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi, turkman qizi Shahriza Ashirova o'z xalqining milliy taomi bo'lmish "Ishlekli"ni qizlar davrasida tayyorladi. Mazkur jarayon qiziqarli lahzalarga boy bo'lib, o'zbek qizlari turkman millatining o'ziga xos an'analari va qadriyatlari tarannumi jo bo'lgan milliy taomini tayyorlash sirlarini o'rgandilar.



0'ZDSMI – 0'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT

Oliy ta'lim muassasasida xalqaro aloqalar keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, xorijlik ilmga chanqoq talabalar ham bemalol tahsil olishlari mumkin. Shahriza Ashirova Turkmaniston Respublikasidan tashrif buyurgan, 2-talabalar turar joyida yashaydi.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

O'zining mehnatsevarligi va intiluvchanligi bilan alohida

ajralib turadi. Mudir Jahongir Karimov taklifi asosida maxsus taom tayyorlash jarayoni orqali o'zbek va turkman yoshlari o'rtasidagi muqaddas rishtani yanada mustahkamlab, milliy urf-odat va qadriyatlarimiz yodga olindi.

Institutda mana shunday quvonarli jarayonlar ko'payaversin!

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
matbuot xizmati